Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARI KAPITALINI SHAKLLANTIRISH MANBALARI VA USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li

Termiz davlat universitetining mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarining afzalliklari va tahlili hamda rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish haqida so'z boradi. Shuningdek, mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini rivojlantirish istiqbollaridagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyatlari, qimmatli qog'ozlar, aksiya, moliya bozori, kapital bozori, kapital, taqsimlanmagan foyda, zaxira kapitali.

Abstract: This article will discuss the advantages and analysis of sources and methods of capital formation of joint-stock companies and improvement of development prospects. It also presents the existing problems in the prospects for the development of sources and methods of capital formation of joint-stock companies in our country, as well as the author's approaches and proposals to eliminate them.

Key words: joint-stock companies, securities, shares, financial market, capital market, capital, retained earnings, reserve capital.

Аннотация: В данной статье пойдет речь о преимуществах и анализе источников и методов формирования капитала акционерных обществ и улучшения перспектив развития. Также приводятся существующие проблемы в перспективах развития источников и методов формирования капитала акционерных обществ в нашей стране, а также авторские подходы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: акционерные общества, ценные бумаги, акция, финансовый рынок, рынок капитала, капитал, нераспределенная прибыль, резервный капитал.

KIRISH

Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlari o'z faoliyatini tashkil etishida kapital tarkibining manbalari, ularning hajmi va muddati muhim ahamiyat kasb etadi. Fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibining manbalarini o'rganishda ularni ikkita guruhga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Birinchi guruhga, o'z mablag'lari, ikkinchisiga esa jalb qilingan mablag'lar kiradi.

Aksiyadorlik jamiyatlarilarning moliyaviy resurslari tarkibidagi o'z mablag'lari ularning passiv operatsiyalari hisobidan shakllanib, ulushi nuqtayi nazardan jami resurslari tarkibida 75-80 foizni, moliya-kredit muassasalarida esa ushbu moliyaviy manba 10-15 foizdan iborat bo'lishi maqsadga lozim. Bundan ko'rinib turibdiki, aksiyadorlik jamiyatlarilarning kapital tarkibining shakllantirishda asosiy e'tibor ularning o'z mablag'lariga qaratiladi. Xususan, mablag'larni samarali joylashtirish, kreditorlar oldidagi majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq bajarish, shuningdek, mablag'larning hajmi va qiymati kapitalni shakllantirishning asosiy obyekti sifatida maydonga chiqishidagi muammolarni bartaraf etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Aksiyadorlik jamiyatlarilarning moliyaviy resurslari takribida dastlab ustav kapitali ta'sisshilar tomonidan shakllantiriladi va asosiy ulushni tashkil etadi. Ustav kapitalining shakllanishi va vujudga kelishi xususida o'z davrida klassik iqtisodiy nazariyachilar muhim g'oyalarni ilgari surganlar.

Xususan, A.Smit kapitalning vujudga kelishida uning sohibini shaxsiy iste'molidan vaqtinchalik ortiqcha pul mablag'lari yoki moddiy boyligi ekanligini ta'kidlaydi¹. Shu bois ham pul mablag'lari sohibiga tegishli pul

1 A. Smith "An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations". London 1776.



zapasini ikki guruhga bo'lib o'rganishga harakat qiladi. Birinchi guruhga pul mablag'ining sohibi daromad olish maqsadida kapital kiritadi. Ikkinchi guruhga foydalanish qanday shakldan bo'lishidan qat'iy nazar foyda olishga yo'naltirilgan pul mablag'lari asosiy va aylanma kapitalni kiritadi.

Iqtisodiy nazariyachilar ichida merkantilistlarning tadqiqot ishlari "qiymat", ya'ni kapitalga bag'ishlangan bo'lib, ularning nazariyasi asosida "kapital" yotadi. Ularning nazariy qarashlari va xulosalariga ko'ra, kapital savdo ishida paydo bo'lib bank sohasida mustahkamlanadi va muomalasi tezlashadi, chunki banklar kapitalni saqlash va uning doiraviy aylanishini tezlashtirish orqali savdogarlar, tadbirkorlar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi.

Demak, zamonaviy sharoitda aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy resurslarini shakllantirish, undan samarali foydalanish va joylashtirishda tijorat banklarining o'рни va ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, merkantilistlar ham boylikning vujudga kelishida savdoni, uning amaliyotda namoyon bo'lish shakli (oltin va kumush) pul ekanligini ta'kidlaydi. Bu jarayon aksiyadorlik jamiyatlari misolida ko'radigan bo'lsak pulning sohibi, ya'ni aksiyadorlarning o'z kapitalidan kutayotgan foydasi dividend hisoblanadi, jamiyatni boshqarish, faoliyatini tashkil etishda ishtirok etayotgan ishchi xodimlarning manfaati ular olayotgan ish haqida ifodalanadi. Bu jarayonda davlatning ishtiroki ham mavjud bo'lib, uning ishtiroki aksiyadorlar olayotgan dividenddan, jamiyat esa foydadan, ishchi xodimlar esa ish haqidan daromad soliqlarini to'lashida namoyon bo'ladi².

Fiziokratlar³ iqtisodiy adabiyotlarda foydani kapital (pul mablag'lari) emas, balki yer keltirishi haqidagi g'oyani ilgari suradi, bunda kapital ikkilamchi vosita ekanligi ta'kidlanadi. Ularning bu g'oyalari orqali merkantilistlarning foyda muomala (kapital)ning natijasi ekanligi haqidagi qarashlariga qarshi chiqadi va kapital ishlab chiqarish jarayonini tashkil etuvchi yordamchi moliyaviy vosita ekanligini ta'kidlaydi. Bularning barchasi iqtisodiy nazariya hamda asarlarda kapital va uning rolini chuqurroq tahlil qilish zarurligini anglatadi. Ularning fikriga ko'ra, "qo'shimcha kapital" faqat yerdagi dehqonchilik asosida yaratilib uning puldagi ifodasi "er rentasi" ekanligi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Biroq, shuni ta'kidlash joizki, fiziokratlar kapitalni asosiy vosita sifatida e'tirof etishmasada unga "yillik avans", "yillik xarajatlar", "boshlang'ich xarajat"lar sifatida qarashadi. Bu o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, ularning kapitalni bu tartibda guruhlashi kapitalni hozirgi zamonda "asosiy kapital" va "aylanma kapital" sifatida hisobotlarda aks ettirishimiz, shakllantirish va tadqiq etishimizga mos keladi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondi O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 3-bobi, 16-moddasiga asosan shakllantirish tartibi, manbalari, 17 moddasida esa uning minimal miqdoriga bo'lgan talab belgilab qo'yilgan⁴.

Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlar sotib olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi.

Qonunda aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalini shakllantirishda oddiy aksiyalarni emissiya qilishi shartligi belgilab qo'yilgan, shuningdek imtiyozli aksiyalarni joylashtirishga ham haqlidirlar. Biroq, imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma foizidan oshmasligi kerak. Yigirma foizlik chegara qo'yilganligining sababi shundaki, aksiyadorlik jamiyatlari hisobot davrining oxirida foyda olish yoki olmasligidan qat'iy nazar imtiyozli aksiyalar bo'yicha belgilangan dividend to'lovlarini to'lashga majburdir. Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy resurslari tarkibida salmoqli ulushga ega bo'lgan ustav kapitali muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlari o'z mablag'larini shakllantirishda ularning taqsimlanmagan foydasi ham muhim o'rin tutadi. Taqsimlanmagan foydaning vujudga kelish manbasi juda oddiy bo'lib jamiyat sof foyda hisobidan soliqlar va dividendlarni to'lagandan keyingi qiymat hisoblanadi. Taqsimlanmagan foydani shakllanishi mahalliy va xorijiy amaliyotda deyarli bir xil bo'lsada undan foydalanish tartibi bir-biridan jiddiy farq qiladi. Buning farqi va xususiyatini bilish uchun unga berilgan iqtisodiy ta'riflarning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Masalan, angliyalik olim Blek (Black) Djeymning fikriga ko'ra, taqsimlanmagan foyda (retained earnings, undistributed profits) soliqlar va dividendlarni to'lashga yo'naltirilmaydigan foydaning ulushi bo'lib, shu kompaniyaning aktivlarini oshirish va likvidligini ta'minlashga investitsiya qilinadi⁵.

Boshqa xorijlik iqtisodchi olimlar taqsimlanmagan foyda kompaniya tomonidan olingan foydaning bir ko'rinishi, biroq aksiyadorlarga dividend sifatida berilmagan qiymatdir degan fikrni ilgari suradilar. Bu kabi foyda odatda zaxira kapitali sifatida ham yuritiladi deya ta'kidlashadi⁶.

2 История экономической мысли /Под ред. В.В.Круглова, Е.В.Балахоновой. –СПб.: Питер. 2008. –Стр. 56-58.

3 Fiziokratiya (fr. physiocrates, grekch. φύσις – tabiat va κράτος – kuch, hokimiyat, hukumron, ya'ni "tabiatning hukumronligi") – fransuz iqtisodiy nazariya maktabi

4 O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. "Xalq so'zi" gazetasining 2014 yil 7 maydagi 88 (6018)-sonida e'lon qilingan.

5 Экономика. Толковый словарь. – М.: "ИНФРА-М", Издательство "Весь Мир". Дж. Блэк. Общая редакция и перевод: д.э.н. Осадчая И.М.. 2010. Стр. 256.

6 Финансы. Толковый словарь. 2-е изд. – М.: "ИНФРА-М", Издательство "Весь Мир". Брайен Батлер, Брайен Джонсон, Грэм Сидуэл и др. Общая редакция и перевод: д.э.н. Осадчая И.М.. 2000.



Bundan ko'rinib turibdiki, bu yerda jamiyatning taqsimlanmagan foydasining vujudga kelishi va undan foydalanish masalasi noto'g'ri talqin etilgan. Fikrimizcha, masalani bu tartibda qo'yilishi jamiyatlarning taqsimlanmagan foydasining nafaqat iqtisodiy mohiyatini buzishga, balki uning maqsadida ham noaniqliklar vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarga asoslangan holda, bizning fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatlari o'z mablag'larini shakllantirishda kapital tarkibi manbalari ko'p qirrali bo'lib, ularni shakllantirish va foydalanishda samarali usullardan kengroq foydalanish aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa usullardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda mustaqillikka erishgandan boshlab to hozirgi davrgacha aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini shakllantirishga hamda rivojlantirishga xizmat qiladigan keng masshtabli va aniq iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. Olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi – kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, erkin bozor tamoyillarining amal qilishidan iborat. Bu borada aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati hamda qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishining ahamiyati juda kattadir. Iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida bo'layotgan ko'p o'zgarishlar ichki va tashqi moliyaviy resurslarni jalb etish va samarali boshqarish bilan amalga oshiriladi. Bu jarayon esa – jahon tajribasidan ma'lumki, samarali moliya bozorining hamda uning yadrosi hisoblangan qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi bilangina bo'ladi. Rivojlangan qimmatli qog'ozlar bozori, xususan korporativ qimmatli qog'ozlar bozori mamlakat investitsiya hajmini oshirishga hamda iqtisodiy o'sishni jahon darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi.

Avvalo, "korporativ qimmatli qog'ozlar" tushunchasiga aniqlik kiritib olaylik. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "korporativ" degan so'zga: "Biror-bir korporatsiya, uyushmaga mansub, oid, ko'pchilikka, umumga tegishli", mazmunida izoh berilgan⁷.

Korporativ qimmatli qog'ozlarga aksiyalar hamda korporativ obligatsiyalar kiradi. Mazkur fikrimizni ko'plab iqtisodchilar, xususan, Ye.F.Jukov ham ta'kidlaganlar. Korporativ qimmatli qog'ozlar (aksiyalar va obligatsiyalar) korporatsiyalar, kompaniyalar hamda korxonalar (yuridik shaxslar) – taomilga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqariladi⁸.

Masalan, I.L.Butikovga ko'ra ham, korporativ qimmatli qog'ozlar bo'lib – korxonaning emission qimmatli qog'ozlari bo'lgan aksiyalar va obligatsiyalar hisoblanadi⁹.

Korporativ qimmatli qog'ozlar (aksiya va obligatsiyalar) korporatsiyalar, kompaniyalar va korxonalar (yuridik shaxslar) tomonidan, xususan aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqariladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra mazkur qimmatli qog'ozlar faqat aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqariladi.

A.A.Misharevning fikriga ko'ra, fond bozorida asosiy qimmatli qog'oz turi – bular aksiyalar hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlari ularni chiqarish orqali o'zining ustav kapitalini shakllantiradi va ko'paytiradi. Aksiyalar mohiyatiga ko'ra AJ xususiy aktivlarini birgalikda boshqarishning guvohnomasi hisoblanadi¹⁰.

E.F.Jukovga ko'ra esa "Aksiyalar aksiyadorlik kapitaliga ulush qo'shilganligi to'g'risida guvohnoma bo'lib, korxonani rasmiy boshqarish hamda daromad olish huquqlarini beradi"¹¹.

O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 3 iyunda yangi tahrirda qabul qilingan "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida" gi qonuniga ko'ra, aksiya – o'z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz hisoblanadi¹². Aksiyalar muomalaga hujjatsiz shaklda chiqariladi. Hozirgi paytda respublikamiz qonunchiligida faqat aksiyalarning "egasining nomi yozilgan" turiga ruxsat etilgan, xolos.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarga asoslangan holda, aksiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin (1-jadval).

7 O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. II. Ye - M/ Tahrir hay'ati: T.Mirzayev (rahbar) va boshq.; O'zR FA Til va adabiyot in-ti. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.408.

8 Рынок ценных бумаг: Учебник для студентов вузов / Под ред. Е.Ф.Жукова.–2-изд., – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 463 с., с.18.

9 Бутиков И.Л. Проблемы формирования и функционирования рынка ценных бумаг в Узбекистане. Дисс...д-ра.эк.наук. – Ташкент, 2009.–С.102.

10 Мишарев А.А. Рынок ценных бумаг. – СПб.: Питер, 2007. –256 с., с.127.

11 Рынок ценных бумаг: Учебник для студентов вузов / Под ред. Е.Ф.Жукова.–2-изд., – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 463 с., с.18

12 O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni. Xalq so'zi, 2015 yil 4 iyun.


1-jadval: Aksiyalarning xususiyatlari va turlari bo'yicha tasniflanishi¹³

№	Xususiyatlari	Turlari
1.	Daromadliligi va ovoz berish huquqi bo'yicha	oddiy
		imtiyozli
2.	Egalik qilish shakli bo'yicha	nomi yozilgan
		ko'rsatuvchiga
3.	Chiqarish shakli bo'yicha	hujjatli
		elektron
4.	Joylashtirish jihatidan	ochiq joylashtiriladigan
		yopiq joylashtiriladigan
5.	Muomalada bo'lish muddatiga ko'ra	muddatsiz
		muddatli (ayrim g'arb davlatlarida)

Yuqorida keltirilgan 1-jadvalda aksiyalarning eng asosiy xususiyatlari va turlari bo'yicha tasniflanishini keltirilgan bo'lib, ushbu tasniflashni yanada davom ettirish mumkin. Ammo, aksiyalarning eng asosiy, ko'p uchraydigan xususiyatlari hamda turlari shulardan iborat bo'lganligi uchun mazkur holat tasniflashni o'rinli deb hisobladik.

“O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi ijobiy jarayon hisoblanadi. Chunki xorijiy investitsiyalar bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy menejerlar va yangi innovatsion texnologiyalar hamda g'oyalar kirib keladi. Bizning fikrimizcha, bunday holatni majburiy qilib belgilash hamda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga cheklovlar quyish bozor tamoyillariga mos kelmaydi”¹⁴. Chunki mazkur jihat yangi aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etilishiga tushkunlik qiladi. Natijada mazkur talab ham 2018-yilda qonunchilikdan chiqarib tashlandi.

Yuqorida keltirilgan talablarniig amalda bo'lishi aksiyadorlik jamiyatlari sonining qisqarib borishiga olib keldi. Natijada oxirgi yillardagi tendetsiya quyidagicha (1-rasm). Aksiyadorlik jamiyatlari soni 2006-yil yakunlariga ko'ra 2189 tani tashkil etgan holda, ulardan 1815 tasi ochiq aksiyadorlik jamiyatlari sifatida faoliyat yuritgan¹⁵. 2022-yil yakunlariga ko'ra esa respublikamizdagi jami aksiyadorlik jamiyatlari soni 628 tani tashkil etmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarining ochiq yoki yopiq aksiyadorlik jamiyatlari tiplari 2014-yilda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasiing “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonuni bilan bekor qilingan.

1-rasm: Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlari soni dinamikasi¹⁶

13 Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

14 Kurbonov J. Davlat va korporativ tuzilmalar o'rtasidagi o'zaro moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish istiqbollari. Iktisodiyot fanlari buyicha PhD ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2018. - 56 b.

15 Abdualimov R. Uzbekiston Respublikasidagi aksiyadorlik jamiyatlarida ichki pazoratninT tashkiliy masalalari. // Iktisod va molil. –№11,2011. –B. 66.

16 <https://uzcsd.uz/> asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Aksiyadorlik jamiyatlarining son tarkibidagi o'zgarishlar tahlili shuni ko'rsatmoqdak, 2017-yilda 606 ta aksiyadorlik jamiyatlari bo'lgan bo'lsa, 2019-yilga kelib mazkur ko'rsatkich 593 tani tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Biroq, 2022-yilda aksiyadorlik jamiyatlarini soni 628 taga yetgan. Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda oxirgi yillarda aksiyadorlik jamiyatlari soni sezilarli darajada o'sgan hisoblanadi. 2023-yilning 01 yanvaridagi holatga ko'ra, Markaziy depozitariyda 628 aksiyadorlik jamiyatining 166 762,49 mlrd. so'm umumiy nominal qiymatga ega 16 446,01 mlrd. dona qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari hisobi yuritilgan. Aksiyadorlik jamiyatlarini sonining 2022-yilda o'sishig asosiy sabab sug'urtalovchilarning tashkiliy-huquqiy shakli aksiyadorlik jamiyati bo'lishi shartligi tartibining joriy etilganligi bilan bevosita bog'liq hisoblandi. Xususan, 30 dan ortiq sug'urta kompaniyalari o'z tashkiliy-huquqiy shaklini mas'uliyati cheklangan jamiyatdan aksiyadorlik jamiyatiga o'zgartirilishi olib kelindi.

XULOSA

Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligi pastligi, fond birjasi listing talablari ma'lum darajada murakkabligi bois qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori nisbatan past darajada qolmoqda. Bunda muntazas dividend to'lovlari orqali passiv daromadga erishish istiqbolda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori rivojida katalizator vazifasini o'tab beradi.

Ustav kapitalida davlat ulushi yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy boshqaruv mustaqilligi chegaralanganligi bois qimmatli qog'ozlar bozoridagi faolligi nisbatan past darajada qolmoqda. Natijada aksiyalar chiqarish orqali arzon kapital jalb qilish imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayapti. Aksincha, yopiq joylash-tirish orqali davlag ulushining kiritilishi esa mustaqil moliyaviy qarorlar qabul qilishni yana ham cheklamoqda.

Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy resurslarini tarkibi barqaror, nisbatan arzon va uzoq muddatli manbalar hisobidan shakllantirilishi ularni erkin raqobatga kirishish imkoniyatini berish bilan birga, ularni to'lovga qobil-ligini oshirishga xizmat qiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida qo'shimcha kapitalni jalb qilish uchun ayrim mavjud moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyati mavjud emas, bizning fikrimizcha, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan ayrim yirik davlat aksiyadorlik jamiyatlari infratuzilma obligatsiyalarini Markaziy Bank qayta moliyalashtirish stavkasidan kam bo'lmagan stavkada emissiya qilishi ularning qo'shimcha kapital jalb qilishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. "Xalq so'zi" gazetasining 2014-yil 7-maydagi 88 (6018)-sonida e'lon qilingan.
2. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni. Xalq so'zi, 2015-yil 4-iyun.
3. A. Smith "An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations". London 1776.
4. История экономической мысли /Под ред. В.В.Круглова, Е.В.Балахоновой. –СПб.: Питер. 2008. –Стр. 56-58.
5. Экономика. Толковый словарь. – М.: "ИНФРА-М", Издательство "Весь Мир". Дж. Блэк. Общая редакция и перевод: д.э.н. Осадчая И.М.. 2010. Стр. 256.
6. Финансы. Толковый словарь. 2-е изд. –М.: "ИНФРА-М", Издательство "Весь Мир". Брайен Батлер, Брайен Джонсон, Грэм Сидуэл и др. Общая редакция и перевод: д.э.н. Осадчая И.М.. 2000.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. . Ж. II. Е - М/ Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.; ЎзР ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.408.
8. Рынок ценных бумаг: Учебник для студентов вузов/Под ред. Е.Ф.Жукова. –2-изд., – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 463 с., с.18.
9. Бутиков И.Л. Проблемы формирования и функционирования рынка ценных бумаг в Узбекистане. Дисс...д-ра. эк.наук. –Ташкент, 2009. –С.102.
10. Мишарев А.А. Рынок ценных бумаг. – СПб.: Питер, 2007. –256 с., –с.127.
11. Рынок ценных бумаг: Учебник для студентов вузов / Под ред. Е.Ф.Жукова.–2-изд., – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 463 с., с.18.
12. Kurbonov J. Davlat va korporativ tuzilmalar o'rtasidagi o'zaro moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish istiqbollarni. Iktisodiyot fanlari buyicha PhD ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent–2018. –56 b.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.